

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOS

– Hamma tengdoshlarimni «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishlarini istayman, – deydi poytaxtimizdagi 17-lingvistik gimnaziyasining 4-«E» sinf o'quvchisi

Mohinur EVODULLAYEVA



2007-yil
26-noyabr –
2-dekabr
N:48
(66641)



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

– Bu gazetani nafaqat maktab o'quvchilari, balki biz ham sevib o'qiymiz, – deydi Toshkent Davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi **Saida JABBOROVA**



DUSHANBADAN

SAYLOV YAQIN

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, ushbu yilning 23-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tadi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro'yxatga olish to'g'risida»gi Qarori e'lon qilindi.

BOLA HUQUQLARI VA QONUNCHILIK

Toshkentda «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaning O'zbekiston Respublikasi qonunlaridagi ifodasiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy seminar bo'lib o'tdi.

Unda bola huquqlariga oid milliy qonunchilikni yana-da takomillashtirish borasidagi keng ko'lamli ishlar izchil davom ettirilayotgani ta'kidlab o'tildi.

ENG YAXSHI MURABBIY

«O'zbekiston» sport majmuasida III Sharq yakkakurashlari va jang san'ati xalqaro festivali bo'lib o'tdi. Bunda u-shu, real aykido, karate, kikkoksing va taekvando sporti ustalari o'z chiqishlari bilan atrofdegilarni quvontirdi.

Festival so'nggida yilning eng yaxshilari munosib taqdirlandi. «Eng yaxshi murabbiy» nominatsiyasi taekvando ITF bo'yicha murabbiy Yuriy Liga topshirildi.

Obuna bahosi Toshkent shahri uchun bir yilga atigi 4116 so'm.
Nashr indeksi – 198.

DUSHANBAGACHA

Yoshim yetdi sakkizga

Opa-singil Maftuna va Mohina Rahmonbekovalar ham «Tong yulduzi»ning ashaddiy muxlisalaridan ekan. Ular ba'zi tengdoshlari singari gazetamizda yozgan she'rlari-yu chizgan rasmlari bilan qatnashish niyatida ekanlar.

Maftuna Rahmonbekova Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyining 4-sinfida o'qiydi. Maftuna bo'sh vaqtlarida she'rlar mashq qilib turadi. Quyida uning she'rlaridan birini e'tiboringizga havola qilayapmiz:

KIM KUCHLI?

– Kim kuchli? – deb so'rasangiz,
– Men kuchliman, men kuchli.

Kuchli bo'lish osonmas,
Mashq qilmasak bo'lmas...

Erta bilan turaman,
Yuguraman, yelaman.
Tanam kuchli bo'lsin, deb
Turli mashqlar qilaman.



Mohina Rahmonbekova poytaxtimizdagi 34-maktabning 1-sinfida o'qiydi. U kichkina bo'lishiga qaramasdan, ijod qilishda opasidan qolishmas ekan. Uning «Quvnoq filcha» deb nomlangan rasmi barchangizga ma'qul bo'ladi, deb o'ylaymiz.

QISHLOG'IM BILAN

FAXRLANAMAN

Bizning qishlog'imiz Yangiobod deb nomlanadi. Keyingi yillarda chindan ham nomiga yarasha qaytadan obod bo'lgan qishlog'imizda rus, o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, tatar millat vakillari ahil va inoq yashaydilar. Bu yerda o'tkaziladigan tadbirlarda mahalla ahli faol qatnashadi. Qishlog'imizda 2 ta maktab, 1 ta bog'cha, 1 ta madaniyat saroyi mavjud. Madaniyat saroyimizga sirk guruhlari, shuningdek, taniqli xonandalar ham konsert qo'yishga kelib turishadi. Maktabimizda nishonlanadigan ayrim tadbirlarimiz ham mana shu madaniyat saroyida bo'lib o'tadi. Qishlog'imizning dalalari shu qadar bepoyon va chiroyliki, ko'rib, ko'zlaringiz to'ymaydi. Men va hamqishloqlarim mana shunday obod va go'zal qishloqda yashayotganimizdan faxrlanamiz.

Shohinur USMONOVA,
Sirdaryo viloyati,
Sayxunobod tumanidagi 28-maktabning
3-«A» sinf o'quvchisi



Ishtirokchi davlatlar qonunda ko'zda tutilganidek, bolaning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, fuqaroligi, ismi va oilaviy aloqalarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish, qonunga zid ravishda aralashuvga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar.

«Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya, I qism 8-modda

ODAMIYLIKNI UNUTMAYLIK!

Bir kuni kutubxonaga ketayotib, keksa bir ayolning ariqqa yiqilib ketganini ko'rdim. Haligi ayol harchand urinmasin, ariqdan chiqarilmasdi. Choratrofdan o'tib ketayotganlarning ayolga yordam bergisi kelmasdi.


Onaxonga yordam berishga shoshildim. Ularni ariqdan chiqarib, ust-boshlarini qoqdim. Keyin surishtirib bilsam, universitetning yo'laklarini supurib-sidirib yuruvchi ayol ekan. To'g'risini aytsam, keksa onaxonga rahmim kelib ketdi. Hammaning bahri-dilini ochib, pokizalikka, tozalikka yo'l ochib yurgan bu keksa onaxon nahotki ariq bo'yida yiqilib yotsa-yu, yo'lovchilar bu holni go'yoki ko'rmayotgandek beparvogina o'tib ketaverishsa... Bizning odamgarchiligimiz, keksaparvarligimiz qayerda qoldi? Axir azal-azaldan buva-yu momolarimiz bizga mehr-oqibat, andisha, or-nomus haqida ko'p va xo'p tushuntirishmaganmi?

So'zim so'nggida shuni aytmoqchiman, barchamiz odamiylikni unutmaylik!

A. HAFEZOV



Ilhom ZOYIR



(Ertak-qissa)

QUVNOQ QUYONCHA

– Shunaqami? Unda oyim bilan dadam meni rosa qidirishayotgandir-a? O'zing bu yerlarda nima qilib yuribsan? Yo sen ham yo'qolib qolganmisan?

– Yo'q, men o'rmonchi boboga yordam berib yuribman, – dedi Sezgir.

Quyuncha o'rmonchi boboning nomini eshitib, titradi. Chunki otasi: «Odamlardan ehtiyot bo'l», deb tayinlagan edi.

– O'rmonchi bobo seni xafa qilmaydimi? Sezgir kulib yubordi.

– Menimcha, sen ovchi bilan o'rmonchini adashtiryapsan, – dedi Sezgir uni tinchlantirishga harakat qilib. O'rmonchi bobo ovchi emas, u shu o'rmonning qorovuli. Senga o'xshaganlarni yaxshi ko'radi. U bilan tanishtirib qo'yaymi?

Sezgir Quyunchaning javobini kutmay, o'zi kelgan tomonga qarab vovulladi. U tomondan:

– Nima gap? – degan dag'al ovoz eshitildi. Quyuncha bu ovozni anglay olmadi. Chunki u biror marta odam ovozini eshitmagan edi. O'rmon qorovuli itining oldiga kelib uning bo'ynini silarkan, oyoq ostida titrab turgan Quyunchaga ko'zi tushib, mamnun jilmaydi.

– O, bu shalpanquloq qayerdan kelib qoldi? – dedi o'rmonchi bobo Quyunchaning qulog'idan ushlab bo'yi baravar ko'tararkan. Quyunchaning qulog'i og'ridi, tipirchilab, cholning qo'lini o'tkir tirnoqlari bilan tirnamoqchi edi, qo'lhallari yetmadi.

– Bu chol mening ismimni qayerdan biladi? – Quyuncha Sezgirdan so'radi. Uning gapini chol tushunmasdi.

– U sening ismingni aytayotgani yo'q, seni erkalayapti, – Sezgir cholning gapini Quyunchaga tarjima qilib berdi.

– Odamlar quloqdan cho'zib erkalarkanda? O'rmonchi boboga ayt, meni pastga tushirsin, men balandlikka chiqsam, ko'nglim ayniydi, – yalinchoq ovozdada dedi Quyuncha. – Undan keyin quloqlarim uzilay deyapti, zo'rg'a chidab turibman.

Sezgir vovullagan edi, chol uning gapini tushundi.

– Bu Quyuncha adashganga o'xshaydi, – chol Quyunchani bag'riga olib, boshini siladi. – Uyasi qayerda ekan buni?

Sezgir o'z tilida Quyunchadan so'radi:

– Uylaring qayerdaligini bilasanmi?

Quyuncha uylari qayerdaligini bilmas-

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

ligini, bilsa, bu yerlarda adashib yurmasligini aytib:

– Balki sen bizning uy qayerdaligini bilarsan? – deb so'radi Sezgirdan.

– Bilmayman-da, – dedi Sezgir. – O'qiyolmayman-ku...

– O'qishning bunga nima aloqasi bor?

– Savodim bo'lmaganidan keyin ko'cha nomlarini o'qiyolmayman. O'zing ayt-chi, qaysi ko'chada yashaysan?

Quyuncha e'tiroz bildirdi:

– Men ko'chada emas, uyada yashayman. Uyamiz katta qarag'ay daraxtining kavagida.

– O'rmonda qarag'ay ko'p-ku. Qaysi birining kavagida?

– Bilmayman.

– Unda qidirishimizga to'g'ri keladi, – dedi Sezgir boshini qashib. – Albatta bu ish oson kechmaydi.

Chol ham xuddi shu muammo haqida o'ylayotgan ekan, Sezgirdan so'rab qoldi:

– Bu shalpanquloqning uyasini topa olarkanmizmi? Qani, hid ol-chi, zora topilsa...

(Davomi bor.)

UKAMNING TILI

Do 'stiga dedi Guli:
–Bahrom ukamning tili-
Kechagina chiqdi, hoy,
Bir bijildoq, erkato'y!

Dugonasi lol bo 'lib,
Guliga dedi kulib:
–Bor bo 'lsin-ey sho 'xligi,
... Avval tili yo 'qmidi?

«SHAXMAT USTASI»

–Teng taqsimlab xonalarni,
Terib qo 'ydim donalarni.
Sizga oqi bo 'laqolsin,
O 'zim olay qoralarni.

Ko 'p chayqamang boshingizni,
Hurmat qildim yoshingizni.
... Qani, endi ko 'rsating-chi,
Uray qaysi toshingizni?!

FURSATDAN FOYDALANISH

Yumronqoziq
Izlab oziq,
Holdan toyib,
Mudrab ketdi.

Tulki esa
Yayrab rosa,
O 'z iniga
Sudrab ketdi!
Orif TO 'XTASH

Istiqlol ilhomlari

MATEMATIK ATAMA

Iks, igrik, nolik,
Alfa, betta, gamma.
Bu qanday noma 'lumlik?
Buni biladi hamma.
Bular bari arifmetik,
Dasturidan namuna.
Bular bari geometrik
Dasturida xazina.
Ular-la hosil bo 'lar
Qiziq-qiziq masala,
Uning yechimin topar,
Bir ajoyib tenglama.

Ilm-fanni o 'rgangan
El ichida xor bo 'lmas.
Ilm-fanni o 'rgangan
Yurt mehriqga zor bo 'lmas.

Ilm-fanni bilganning
Elda atashar dono.
Ilm olgan kishilar,
Bilim izlar doimo.

ILM

Ilm-fanni o 'rgangan
Hech narsadan kam bo 'lmas,
Qancha ko 'p ilm olsa,
Izlashdan ko 'ngli to 'lmas.

Anora YO 'LDOSHEVA,
M.Ulug 'bek tumanidagi
308-maktabning
8-sinf o 'quvchisi

BOLALIK



Buvijon, ertak ayt, Barchin bo 'layin,
Tun alla aytmoqda, bosmasin g 'aflat.
Buvijon, ertak ayt, nurga to 'layin,
To 'maris bo 'layin ertaga albat!

Qonimda oqmoqda gullamoq fasli,
O 'tmish yuzin artdi etaklarimga.
Tarix shodasidan so 'zlab ber, buvi –
Kelajak bog 'liqidir ertaklarimga!

Durdona ABDUMAJID qizi

KAMALAK



Tovlanadi samoda,
Ko 'z-ko 'z etib husnini.
Dil quvonar ko 'rganda,
Ko 'rgim kelar har kuni.

Yong 'ir yog 'ib o 'tganda,
Yetti rangda bo 'ladi.
Qizil, sariq, ko 'k rangda,
Xo 'p tovlanib turadi.

M.KARIMJONOVA

BO 'RI VA TULKI

Bo 'ri o 'rmonda kezib,
Tulki bilan topishdi.
Bir-biriga maqtanib
Rosa qirga chopishdi.

O 'ynab-o 'ynab sakrashdi,
Qorinlari och edi.
Hayvonlar havas qildi,
Ora bir quloq edi.

Bo 'rining vajohatin,
Sezib qoldi Tulkivoy.
Quyoni chiqmasa,
Ahyoli bo 'lardi voy.

Abdurasul ABDUJALILOV

VATAN

Bag 'ringda o 'ynadim, yayradim, Vatan,
Beg 'ubor baxtimdan nishonam o 'zing.
Onamday mo 'tabar bilurman seni,
Muborak ostonam, koshonam o 'zing.

Kerak bo 'lsa, jonim qilurman fido,
Bo 'layin senga men sodiq fuqaro.
Ka 'badek muqaddas erursan asli,
Yagona Vatansan vatanlar aro.

Bebaho va aziz maskansan, vatan,
Qalblarga cheksiz bir g 'urur solgansan.
Nomingni takrorlab charchamas tilim,
Yuragim to 'ridan o 'rin olgansan.

Munira MATRASULOVA



AROSAT O 'LJASI



Bugunning yoshlari har tomonlama bilimli, chuqur salohiyatga ega bo 'lib ulg 'ayishga astoydil kirishganlar. Aynan shu tirishqoqlik yoshlarimizni turli qing 'ir va bema 'ni yo 'llarga kirib ketishdan, jinoiy ishlarga qo 'l urishdan, giyohvandlik, ichkilikbozlik kabi yomon illatlarga berilib ketmasliklari uchun mustahkam devor vazifasini o 'taydi va bu kelajak egalari xavf-xatardan asraydi.

Barchamizga ma 'lumki, 1-dekabr – «Xalqaro OITSga qarshi kurashish kuni» sifatida o 'tkaziladi. Barcha Oliy va O 'rta maxsus ta 'lim muassasalari talabalari o 'rtasida, maktab va maktabgacha ta 'lim muassasalarida ham davra subhatlari, tushuntirish ishlari olib boriladi. Bunda yoshlar turli plakatlar va bannerlarda yozilgan g 'oyalari, o 'zlari tayyorlab kelgan mavzulari bilan ishtirok etadilar. Chunki ular «Asr vabosi» deya e 'tirof etilgan OITS, ya 'ni orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi va uning salbiy oqibatlariga haqida to 'liq ma 'lumotga e'galar.

Aynan shu xususda O 'DK (O 'quv davolash kompleksi)ning ikkinchi bosqich talabasi Yulduzxon Zohidova shunday fikrda:

– Kasalni davolagandan ko 'ra uning oldini olgan ma 'qulroq, deydi dono xalqimiz. Naqadar haq gap. Inson xato qilishdan o 'ldini uning oqibatini o 'ylab ko 'rishi lozim. O 'ylamasdan bosilgan har qanday qadam kishini noqulay vaziyatlarga tushirib qo 'yishi mumkin...

Ilmiy tekshirish natijalariga qaraganda, giyohvand moddalar inson organizmiga kirgach, avvalo qon aylanish sistemasi orqali jigarga yetib boradi. Jigarda bir qismi ditoksiyaga uchrab, qolgan qismi ichaklardan so 'riladi. Natijada, jigar xastaligi kelib chiqadi. Ular uxlay olmaslik, sustlik, a 'zoyi badanning zirqirab og 'rishi, ishtahasizlik, tushkunlik holati, ko 'zning yoshlanishi, serpeshoblik, tomirlarning bo 'rtib chiqishi, yurakning tez urishi, ko 'ngil aynish va qayt qilish kabi holatlarga duchor bo 'ladilar.

Bu og 'u oilalar tovuqligini buzadi, yosh va begunoh bolalarni yetim bo 'lib qolishiga olib keladi. Kishilarni qashshoqlik va muhtojlikda kun kechirishga, oxir-oqibat o 'lim yoki ayanchli hayot tarzi bilan yakun topishiga sabab bo 'ladi.

Nafisa RUSTAMOVA

YONG 'INDAN OGOH BO 'LING

O 'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2007-yil 8-noyabrda qabul qilingan Farmoyishiga asosan Respublikamizda 15-noyabrdan 15-dekabrgacha Yong 'in xavfsizligi oyligi deb e 'lon qilindi. Bundan ko 'zlangan asosiy maqsad, gaz, elektr-energiya, suv xo 'jaligi va isitish moslamalarining sozligiga erishishdan iborat. Kunlar soviy boshlagach, isitish moslamalariga talab o 'z-o 'zidan kuchayadi. Elektr asboblari bilan uylarni isitish yoxud ulardan qay tarzda foydalanishni bilmaslik, qo 'lbola isitgichlardan foydalanish turli yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Aholi turar joylarida sodir bo 'layotgan yong 'inlar tahlili shuni ko 'rsatmoqdaki, fuqarolar yong 'in xavfsizligini bilsalar-da, uni ko 'r-ko 'rona buzib, o 'zlarining ham, yon-atrofdagilarning ham mol-mulklarini xatarga qo 'ymoqdalar. Bu esa yaqinlarining jabrlanishiga ham sabab bo 'lmoqda.

Aziz o 'quvchilar! Siz ham yong 'in xavfsizligi oyligida faol ishtirok eting. Bu bilan oilangizdagilarning ham, o 'zingizning ham xavfsizligingizni ta 'minlang bo 'lasiz.

Zafar AKBAROV,
24-XYOXQ inspektori,
katta leytenant



OLOV – TILSIZ YOV

O 'lkamizda kuz faslining oxiri hukmronlik qilmoqda. Bu mavsumda tabiiyki, xonadonlarni issiqlik manbaalari bilan ta 'minlash kundalik ehtiyojimizga aylanib qoladi. Shubhasiz, qishga avvaldan tayyorgarlik qilib, isitish vositalarini bir karra ko 'zdan kechirib qo 'yish foydadan holi bo 'lmaydi. Ammo ba 'zi insonlarning loqaydligi isitish vositalaridan noto 'g 'ri foydalanishlari yoxud dudburonlarning o 'z vaqtida tozalanmasligi tufayli ko 'pgina achinarli hollar yuz bermoqda. Mana shunday noxush oqibatlarni oldini olish uchun yong 'in xavfsizligi xodimlari tumanlardagi har bir korxonaga, o 'quv muassasalariga, xonadonlarning isitish moslamalari qay ahvolda ekanligini tekshirib chiqishmoqda.

Aziz bolajonlar, siz ham bunday ko 'ngilsiz voqealarni oldini olish uchun o 'z hissangizni qo 'shing. Ko 'chada yoqilayotgan xazonlarni o 'ynamang, uyingizda yoki maktabda gaz hidini sezsangiz, albatta bu haqida kattalarga xabar bering.

A.SAIDOV, kichik inspektor, safdor

FALOKAT OYOQ OSTIDA

Yong 'in sodir bo 'lgan xonadon vayronaga aylanadi. Uyidan baraka, fayz qochadi. Yuqoridagi tahlillarga qo 'shimcha qilgan holda dalillarga murojaat qilsak...

Shayxontohur tumanidagi Mujrim Obid ko 'chasi, 8-uyda sodir bo 'lgan yong 'in yon-atrofdagi yashovchi qo 'ni-qo 'shnilarni ham dahshatga soldi. 200 kvadrat metr maydonida uying tom qismining ichki qoplamasi hamda uy jihozlari yonib ketgan. Aniqlanishicha, televizorning nazoratsiz qoldirilganligi bu xonadon sohiblarini jiddiy talofat ko 'rishlariga olib keldi.

Yana shunga o 'xshash hodisa Katta bog ' mahallasida ham sodir bo 'ldi. Gaz bosimining ko 'payib ketishi oqibatida bu mahalladagi 88-xonadon yong 'in iskanjasida qoldi. 70 kvadrat metr maydonida uying tom qismi va uy jihozlari yonib ketgan.

Shuningdek, Sergeli tumani, Daryo bo 'yi ko 'chasi, 34-xonadonda sodir bo 'lgan yong 'in ham hammomni butkul kulga aylantirgan. 40 kvadrat metr maydonidagi olov gaz pechining qizib ketishi oqibatida kelib chiqqan.

Uchtepa tumanida gazni nazoratsiz qolishi oqibatida 4 ta xonadon yonib ketgan. Keyingi paytlarda uylarning bir-biriga jips qilib qurilishi ham yong 'inning bir uydan boshqasiga osongina o 'tib ketishiga sabab bo 'lmoqda.

Dudburonning nosozligi oqibatida kelib chiqqan yong 'in Hamza tumanidagi ikki xonadon sohiblarini boshpanasiz qoldirdi.

Falokat oyoq ostida, deysinhadi. Inson ko 'ziga go 'zal bo 'lib ko 'ringan narsani, afsuski, xunuk holga kelib qolishiga ham aynan inson sababchi bo 'lib qolmoqda. Yong 'in tufayli, ayniqsa, odamlarning halok bo 'lishi yoki bir umrga nogiron bo 'lib qolishlari eng achinarli holdir.



Biz yong 'in xavfsizligi xodimlari, barcha-barchani olovdan unumli foydalanishga chaqiramiz. Uyingizdan chiqib ketayotganingizda elektr asboblaringni, gaz plitalaringni o 'chirishni esingizdan chiqarmang.

I.SHODMONXO 'JAYEV, 12-XYOXQ, 24-XYOXQ boshlig 'i, kapitan

YEROSTI «QASR»LARI

Sarlavhani o'qiboq, ertaklardagi mo'jizaviy qasrlar ko'z oldingizga keldi chog'i, a, kichik do'stlarim?! Biroz yanglishdingiz, gap ertaklardagi emas, zamonaviy qasr haqida boryapti. U yerni ko'pchiligingiz o'z ko'zingiz bilan ko'rgansiz, ko'p marta «mehmon» ham bo'lgansiz. Yozda salqin, qishda issiq bo'lib, bekatlarining betakror bezaklari bilan yurtimiz jamoliga yana-da ko'rk qo'shib turgan bu yerosti qasri Toshkent metropoliteni deb ataladi.

Yaqinda biz ham u yerda bo'ldik. Metropoliten boshqarmasi boshlig'i Mirkamol akangizdan «sirli qasr» haqida ko'p narsalarni bilib oldik.



transport turimiz bekatlari sharqona nafislik bilan bezatilgan. Bu yerda mavjud bo'lgan ayrim qurilmalar dunyo metropolitenlari ichida yagona hisoblanadi. Bunga misol qilib, havoni chang-g'uborlardan tozalab, sovutib va namlab beradigan adiobatik uskunani, metropoliten qurilmalarining yer silkinishi natijasidagi ahvolidan xabar beruvchi seysmometrik stansiyalarni keltirish mumkin.

BIRINCHI QALDIRG'OCHLAR



METRO QAYERDA QURILISHI KERAK?

Toshkent metropolitenini qurish zaruriyati 1963-yilda tug'ilgan. Chunki o'sha yili poytaxt aholisi 1 million kishiga yetgan edi. Bunday shaharlarda metropoliten quriladi. 1966-yilning aprel oyida Toshkentda ro'y bergan zilzila tufayli metro qurilishi bir oz orqaga surildi. 1972-yildan boshlab loyiha va tuproq ishlari, 1973-yildan esa asosiy qurilish ishlari boshlab yuborildi. Yurtimizdagi 300 dan ziyod korxonalar metro qurilishida va uni jihozlash ishlarida ishtirok etishgan.

UNUTILMAS SANA

Bunyodkor bobolarimizdan bizga tuhfa bo'lgan Toshkent metropoliteniga 1977-yilning 18-may kuni Mitishi vagon zavodidan birinchi 10 ta EJ-3 rusumli vagonlar keltiriladi. Sobiq Ittifoqda yettinchi, dunyoda o'ttiz yettinchi bo'lgan ushbu yerosti qasrimiz 1977-yil 6-noyabrda ishga tushirilgan. Bugungi kunda Toshkent metropoliteni yetti qismdan iborat. Unda 29 ta bekat, 39,5 kilometr uzunlikdagi foydalanish yo'li va 3 ta elektrodepo joylashgan.

YAGONA QURILMA

Dunyoda eng ozoda metropolitenlardan biri deb tan olingan noyob

O'zining o'ttiz yillik to'yini munosib qarshi olayotgan metropolitenning ilk qaldirg'ochlari – «El-yurt hurmati» ordeni sohibi Shoinoyat hoji ota Shoabdurahimov, Asqad Xoliqov, Bahodir Qodirov, Fazliddin Zokirovlar bugungi kunda yoshlarning mehribon ustozlari.

– Asosiy ishimiz – yo'lovchilarga beminat xizmat ko'rsatish. Ayni vaqtda yerosti transportini mohirlik bilan boshqarayotgan Dadajon O'rinov, Rustam Qodirov, Baxtiyor Jo'rayev, Abdujabbor Fozilov hamda Rustam Ziyayev, Baxtiyor Sodiqov, Larisa Kulishova singari xizmatchilarimiz bizning faxrimizdir.

Barcha yo'lovchilarimiz qatori Siz shirindan shakar bolajonlarni ham «yerosti qasrimiz»da kutib qolamiz, – deydi Mirkamol aka Odilov.

Biz esa tun-u kun tinim bilmasdan uzog'imizni yaqin qilayotgan, shirin so'zi, xushmuomalasi bilan dilimizga olam-olam shodlik ulashayotgan aka va opalaringizni kuni kecha nishonlagan kasb bayramlari bilan qizg'in qutlaymiz. Ularga sog'lik va omonlik tilaymiz.

Jamila HAYDAROVA

«HAYOTIMIZ QOMUSI» AYLANMA KROSSVORDI

Javoblar shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida yoziladi.

1. Ma'lum bir tizimga solingan qonunlar majmuasi.
2. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»ning XXIII bobi nomidan: «... tizimi».
3. Bosh qomusimizning «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar» bobidan: «Bepul umumiy ... olish davlat tomonidan kafolatlanadi».
4. Sud muassasalari majmui.
5. Respublikamiz qonun chiqaruvchi organining tarkibiy qismi.
6. Vatanimizda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalardan biri.
7. O'zbekiston Respublikasining davlat mukofoti nomidan: I va II darajali «... avlod» ordeni.
8. Qomusimizning 31-moddasidan: «Hamma uchun ... erkinligi kafolatlanadi».
9. Ma'muriy hudud.
10. Konstitutsiyamizning Birinchi bo'limi nomidan: «... prinsiplar».
11. Hayotimiz qomusidagi XXV bob 122-moddadan: «O'zbekiston Respublikasi o'z ... va pul-kredit tizimiga ega».

12. Ma'lum bir lavozimga saylanuvchi.
13. Biror sohaning yetakchisi.
14. Ko'pchilik, xaloyiq.
15. Bosh qomusimizning «Oila» bobidan: «Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan ... bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi».
16. Davlatimizning doimiy aholisiga mansub bo'lgan qonunlarimiz bilan belgilangan barcha huquqlardan foydalanuvchi va shu qonunlarda qayd etilgan barcha burchlarni ado etuvchi kishi.
17. Idora, muassasa rahbarining ma'lum vazifalarni bajarish haqidagi rasmiy ko'rsatmasi, ijro etilishi zarur hujjat.
18. Konstitutsiyamizning «Jamoat birlashmalari» deb nomlangan XIII bobidagi 59-moddadan: «... uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar».
19. Fuqaroning kimligini, mashg'ulotini biror tashkilotga a'zoligini tasdiqlovchi ish qog'ozi.
20. O'zbekiston Respublikasi oliy

21. nishonlaridan biri, medal.
22. Qomusimizning I bobi nomidan: «... suvereniteti».
23. Davlat boshlig'ining qonun kuchiga ega bo'lgan farmoyishi.
24. O'zbekiston qahramoni, Xalq shoiri «O'zbek qomusi» she'ri muallifi.
25. Davlatimiz ramzlaridan biri.
26. IX bobidagi 41-moddadan: «... ishlari davlat nazoratidadir».


MUAMMONOMA

Quyida a'riflangan so'zlarni topib, shakl atrofidagi rim raqamidagi xonalardan boshlab yozish bilan muammonomani hal eting:

- I. Aziz vatanimizga berilgan nom.
- II. Mustaqillikka ega bo'lgan davlat.
- III. Xalqchilik tamoyiliga asoslangan idora tizimi.
- IV. Hokimiyatning oliy organlari ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan davlat tizimi va shunday tizim o'rnatilgan mamlakat.

Endi javoblarni ketma-ket o'qisangiz, «Hayotimiz qomusi»ning ilk moddasida betakror mamlakatimizga berilgan ta'rifni bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi



Qadrli o'quvchi! Haftada bir marotaba bo'ladigan tarbiyaviy soatdan xursandmisiz yoki... o'zlashtirishga qiynalayotganingiz, biroq to'polonchiligingiz masalalari tanqid qilinayaptimi? Tanqiddan charchaganingiz sabab gohida ushbu soatdan «qochish»ni ham o'ylayotgandirsiz? Yaxshisi, Siz yangi takliflar bilan chiqing, tarbiyaviy soatlarda o'zingiz faol ishtirok eting. Bu borada «Tong yulduzi» gazetasi yaqindan yordam beradi. O'qing va xulosa chiqaring:

«TARBIYAVIY SOAT»DA NIMALAR HAQIDA SO'Z YURITILYAPTI?

– Biz o'qigan vaqtlarda Uchtepa tumanidagi 197-maktabda yaxshi bir an'ana bor edi. Haftaning shanba kuni erkin adabiyot darsi o'tkazilardi va tarbiyaviy soatlarga ulanardi. Unda o'zimiz o'qigan kitobni, gazeta va jurnallardagi maqolalarni tahlil qilardik. Ustozimiz Nazira opa esa bizga yangi topshiriqlar berardilar, hatto eng «ikkichi» sinfdoshimiz ham she'rlar yodlashga harakat qilardi.

Dilbar IBODOVA, o'qituvchi

– «Tarbiyaviy soat bo'ladi», deyishsa, bahona qidirib qolaman. Iloji bo'lsa, qatnashmasam deymen. Sababi, har safar faqat mening masalam ko'riladi. «Nega falon darsda to'polon qilding, uy vazifasini bajarmading?» Xullas, savollari juda ko'p. Gohida namunali o'quvchi bo'laman, deb harakat qilaman, lekin uddasidan chiqolmayapman.

Sardor SOLIYEV, Farg'ona viloyati, Rishton tumani

– Maktabimizda katta ta'mirlash ishlari ketayotgani bois poytaxtimizdagi 148-maktabda o'qiyapmiz. Tarbiyaviy soatlarimiz ham o'z vaqtida bo'layapti. Ustozimiz sinfni ikki guruhga bo'lib, topshiriq beradilar. Biz esa keyingi haftadagi tarbiyaviy soatda ustozimiz topshirig'ini kichik sahna ko'rinishi orqali ifodalaymiz. Gohida o'zimiz ham mavzu tanlaymiz, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlarimizni bayon etamiz. Ayniqsa, tilga e'tibor, odob-axloq va muomala madaniyati, milliy liboslarimiz haqidagi sahna ko'rinishlarimiz asosidagi tarbiyaviy soatlarimiz juda qiziqarli o'tadi.

Qunduxon EGAMOVA

– Men Hamza tumanidagi 69-maktabda o'qiyman. Har shanba kuni sinf rahbarimiz Iroda Soipova boshchiligidagi tarbiyaviy soat o'tkaziladi. Unda hafta davomida olgan a'lo baholarimizni hisoblab chiqamiz. O'tgan haftada men 35 ta «5» baho olgan ekanman. Ustozim menga badiiy kitob sovg'a qildilar. Hozirda barcha sinfdoshlarim a'lo baho olishga harakat qilyaptilar.

Munisa SAIDXO'JAYEVA

Feruz SOYIBJON qizi tayyorladi

GAP YOSHDA EMAS...

Qoraqalpog'istonlik Fazilat Rahmatullayevani ilk bor ko'rganimda, mittigina jussasiga qarab, boshlang'ich sinf o'quvchisi bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. Yaqinroq tanishgach, «Gap yoshda emas, boshda», degan ibora aynan Fazilat kabi qizlarga nisbat qilinganiga amin bo'ldim. Uni «iqtidorli qiz» ham deyisharkan. Shunday bo'lmaganda, To'rtko'l tumanidagi 45-maktabning 6-sinfida hamda bolalar san'at maktabining 2-sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga, ijod bilan ham shug'ullanarmidi?! Ustozi Indira Do'simovadan o'rgangan kuylarini chalib berganida, nafaqat jiyanchalari Dilshodbek va Sarvarbek, balki kattalarning ham o'yinga tushgisi keladi.

Maktabdagi faolligini aytmayisizmi?

«Kamalak» tashkilotining «Oltin meros» yo'nalishiga sardorlik qiladi. Nomidan ham ko'rinib turganidek, bu yo'nalish a'zolari o'lkamiz tarixini, yodgorliklarini, «Guldursun», «Qirq qiz», «Ayoq qal'a» kabi ko'hna obidalar tarixini o'rganishadi.

Fazilatning yozgan maqola va xabarlarini, ertaklari tumandagi «To'rtko'l Inoma» gazetasida tez-tez chop etilib turadi. Bundan tashqari, maktabi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan ingliz tili, tikish-bichish, sport to'garaklari mashg'ulotlariga ham muntazam



qatnaydi. Onasining eng yaqin ko'makchisi bo'lmish Fazilat uy yumushlaridan ortib, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev kabi bolalar yozuvchi va shoirlari kitoblarini o'qishga ham fursat topadi. Kompyuter bilan bemalol «tillasha»di. Kelgusida jurnalist bo'lib, jannatmakon diyorumiz haqidagi maqolalari orqali yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratmoqchi.

Bugunning bolasi shunday bo'lishi ham kerakda, nima deysiz?!

ZAMONBEKA



GAZETAGA MAKTUB

Mening jonajon gazetam «Tong yulduzi»! Bu maktubni kech soat 21⁰⁰ da yozyapman. Oppoq qog'ozga tizim-tizim misralarni bityapman-u, yuragimni qandaydir umidsizlik kemiryapti. Qanday umidsizlik, deb so'rarsan balki? Kel, sirdoshim, qulog'ingga bir sirni aytib qo'yayin. To'g'risi, bag'ringda mening satrlarim uchun joy bormikin, deb qo'rqib turibman. Agar ushbu dil so'zlarim sahifangdan munosib o'rin olsa, ustozim Jamila opa Bobojonovani dunyoda eng yaxshi ko'rgan ustozim ekanligiga ishonitirgan bo'lardim.

SIRLI SO'ZNING QUDRATI

Avvallari ingliz tili darsini unchayam xushlamasdim. Ustozimning har bir darsdagi mahoratini ko'ribmi, kun sayin bu fanga qiziqqa boshladim. Hozir men ingliz tili ustozimni hammadan ham yaxshi ko'raman. Ularni sinfdoshlarimdan qizg'angim keladi.

Bir kuni ularni yaxshi ko'rishimni aytilish uchun xonalariga kirdim. Shu-shu biz ustoz bilan ona-boladek bo'lib ketdik. Kelajakda men ham ustozim singari Jahon tillari universitetining ingliz tili fakultetida tahsil olmoqchiman. Yagona maqsadim – ustozim izidan borib, mehribon muallima bo'lish.

Dilbar RAJABOVA, Xorazm viloyati, Gurlan tumani



«KAKA»DEK BO'LSA, AJABMAS



Toshkentning «Paxtakor» klubi futbol akademiyasida iqtidorli bolalar ko'p. Ayniqsa, istiqol tufayli yosh futbolchilarga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Yil davomida turli xalqaro turnirlarga borish an'anaga aylangan.

Bugun iste'dodli tengdoshlaringizdan biri xorazmlik Jamshidbekni sizlarga tanishtirgimiz keldi. Xorazm viloyatining Urganch shahrida

tug'ilgan Jamshidbek 7 yoshidan boshlab shahardagi 3-sonli BO'SMga qatnaydi. Murabbiy Olim Davlatov qo'l ostida shug'ullana boshlagan bolakayning hayotida 2004-yil Jizzaxda o'tgan futbol bo'yicha Respublika birinchiligi unutilmas iz qoldirdi. Uni «Paxtakor» klubi ustoz Dmitriy Makarovich Kim o'z davrasiga oldi.

«Paxtakor» bolalar jamoasida yarim himoyada to'p surayotgan Jamshid, braziliyalik KAKAning, paxtakorchi Server Jeparovning o'yinlarini yoqtiradi.

Kelajakda «Paxtakor»ning katta o'yinchilari safida to'p surish uchun astoydil harakatda. Mashg'ulotlardan ham keyin qolib, individual mashg'ulotlarga zo'r beradi. Jussasining kichikligi, chaqqon harakatlari tufayli uni maydonda to'xtatib qolish qiyin. Turli turnirlarda muvaffaqiyatlarga ham erishmoqda. Demak, Jamshid Iskandarov nomini eslab qoling! U hali o'zbekning «KAKA»si bo'lsa, ajabmas.

TO'PSURAR MA'RUF

Ma'ruf 1993-yilda tug'ilgan bo'lsa-da, futbol saboqlarini Chilonzor futbol maktabida 1991-yil tavallud topgan bolalar bilan boshladi. Chunki 2001-yilda aynan 1991-yilda tug'ilgan yosh futbolchilar qabul qilinayotgan edi-da.

– O'zingizdan kattalar bilan to'p surish qiyin bo'lmadimi? – so'raymiz Ma'rufdan.

– Boshida qiyin bo'lgandi. Ammo keyinchalik ko'nikib ketdim. Bu, ayniqsa, hozirga kelib, menga katta foyda berayapti. Ya'ni, bugun «Paxtakor»da o'z tengdoshlarim orasida o'ynayapman va tajribam asqotayapti. Murabbiy ham meni mas'uliyatli va murakkab bo'lgan – chap qanot himoyachisi sifatida maydonga tushiryapti.

– Ma'ruf, muxlislar hujumkor futbolchilarni yoqtirishadi. Oldingi chiziqqa o'tishni istaysizmi?

– Futbolchi murabbiy qo'ygan chiziqda o'ynashi kerak. Garchi, chap qanot himoyachisi bo'lsam-da, Roberto Karlos, Ilhom Suyunov kabi tez-tez hujumga o'tib turishni, darvozaga uzoqdan zarba berishni o'yin uslubimga kiritganman.

Shuningdek, fransiyalik hujumchi Tyerri Anrining tezkorligi ham meni hayratga soladi. Kelajakda ulardek futbolchi bo'lishni, O'zbekiston Milliy terma jamoasi safiga kirib, muxlislariga xush yoqadigan o'yin namoyish etishni dilimga tukkanman. Hozir men Respublika Olimpiya zaxiralari kollejida tahsil olayapman. Kelajakda futbol olamida qoyilmaqom o'yinlar ko'rsatib, yurtimiz nomini jahonga yoyming keladi.

Suhbatdosh: Ma'mura MADRAHIMOVA

Astrid LINGREN



Va Bolakay haqida qissa

Xuddi shu payt tashqarida o'ziga tanish vizillagan tovush eshitildi. Bolakay irg'ib turdi, derazadan boshini chiqardi. Karlson yelkasida parragini pirillatib qarshisida osilib turardi.

– Meni kutmaganmiding? – dedi kulib Karlson, – kecha salgina issig'im bor, degandim.

– Kutdim. Issig'ing rostdanam bormidi yoki buyam navbatdagi loflaringdan biri edimi?

– Topding! – dedi Karlson, – lof bilan so'zlamasam, ichim chiqmaydi, ko'nglim yozilmaydi. Hech qanaqa issig'im yo'q, anchayin sening rahmingni keltirish uchun aytgan edim-da. Xo'sh, endi nima qilamiz?

Karlson uy ichida aylanib uchar ekan, har bitta buyumga bir-bir tegib o'tar, ba'zilarini olib yerga tashlar, shkafni ochib ko'rib, yana yopib qo'yardi.

– Bugun kayfim chog', – dedi Karlson, – biror ermak topib o'ynagim kelib turibdi.

Bolakay ham Karlsonning o'yinlarini sog'inib o'tirgan edi. Ammo u bugun nima qilib bo'lsa-da, uyidagilarga Karlsonni ko'rsatmoqchi va uchar odam xomxayol degan akasi bilan opasining og'ziga urmoqchi edi.

– Sen shoshmay tur! – dedi Bolakay, men hozir kelaman.

U yugurib oshxonaga chiqib ketdi.

Opasi bilan akasi yo'q, lekin baxtiga ota-onasi shu yerda ekan.

– Dada, oyi! Tez bu yoqqa yuringlar! – deb shoshirdi Bolakay, – ajoyib bir narsa ko'rsataman.

– Nima ekan u ajoyib narsang? – dedi onasi. Bolakay Karlson degisi kelmadi.

– Yuraveringlar, borganda ko'rasizlar, tezroq-tezroq!

Ota-onasini sudraganday qilib o'z xonasiga boshladi-yu, birdan eshikni ochdi. Hozir dadam bilan oyim tirik Karlsonni ko'rishsa, og'izlari ochilib qoladi, deb o'ylagandi. Xonaga kirib, hafsalasi pir bo'ldi. Karlsonning qorasi ham yo'q edi.

– Qani ajoyib narsang? – dedi dadasi.

– Nima ko'rsatmoqchi eding? – so'radi onasi.

– Hech... hech narsa... – dedi yig'lagudek bo'lib Bolakay. Shu payt telefon jiringladi, dadasi chiqib ketdi.

– Voy, plitaga lochira qo'ygan edim, kuyib ketmasin! – deb onasi ham oshxonaga yugurdi. Bolakay yolg'onchilikdan qutulib qoldi. U yana deraza oldiga o'tirdi. Jahli chiqdi. «O'rtoq degan ham shunaqa bo'ladimi? Birpas kutib turmay, juftakni rostlab qolibdi. Kelsin, yuziga solaman», deb qo'ydi ichida Bolakay. Shu payt «g'iyq» etib shkafning eshigi ochildi-yu, Karlsonning kulib turgan yuzi ko'rindi. Bolakay hayratdan taxta bo'lib qoldi.

– Mening shkafimda nima qilib yuribsan? – deyoldi xolos.

– Tuxum ochdim, desam baribir ishonmaysan, – deb kuldi Karlson, – qilgan gunohlarimni o'ylab o'tirgandim desam ham yolg'on bo'ladi. Shunchaki, shkafda dam olib o'tiruvdim. Ko'ngling to'ldimi?

Bolakay Karlsonning topilganiga xursand bo'ldi. Karlson esa yana shkafga kirdi, qaytib chiqdi, keyin:

– Bu shkafing kenggina ekan, rosa berkinmachoq o'ynashga qulay ekan. Ke, birpas o'ynaymiz! – dedi. Bolakay rozi bo'ldi. Karlson lip etib shkafning ichiga berkindi-yu, «Ana endi meni topib ol!» deb g'o'ng'illadi. Bolakay shartta shkaf eshigini ochdi. Ichkarida Karlson yalpayib yotardi.

– Be, sen bo'lmading! – dedi u arazlagan qiyofada labini burib, – o'rtoq degan ham shunaqa

bo'ladimi? Ha, avval nomiga qaydasan, Karlson, deb u yoq-bu yoqqa qaramaysanmi, keyin, qani, shkafni ham ko'raylik-chi, deb ochmaysanmi? Bunaqa qilsang, sen bilan o'ynamayman. Juda bemaza bola ekansan.

Bolakay bir nima demoqchi edi, oyisining tovushini eshitib qoldi:

– Bolakay! Krister bilan Gunilla seni so'rab kelishdi. Kutib ol, bolam.

Buni eshitib hozirgina hurpayib turgan Karlsonga jon kirdi.

– Shoshma, Bolakay, men hozir o'rtoqlaringni bir hayron qoldirayki, umrbod eslaridan chiqmaydigan bo'ladi. Shkafning eshigini qattiqroq yopgin-da, og'aynilaringni boshlab kelaver.

Bolakay Karlsonning aytganini qilib, chiqib ketdi. Hademay, Krister bilan Gunillani boshlab kirdi. Bolakay, Krister, Gunilla uchchalasi bir sinfda o'qishadi, bir ko'chada turishadi. Bolakay Gunillani yoqtiradi, yaxshi qiz-da o'zi, deb onasiga ham maqtab qo'yadi. Kristerni ham yomon ko'rmaydi-yu, biroq, gohi-gohida janjallashib qolishadi. Mushtlashib ham ketishadi. Biroq, ikki-uch kun o'tmay, darrov yarashib olishadi.

Tunov kuni ham arzimagan narsa deb urishib qolishgan edi. Mana, bugun bo'lsa, Krister Gunillani yetaklab hech narsa ko'rmaganday kirib kelishibdi. Krister Yoffa degan kuchugini ham ergashtirib olibdi. Kuchukni ko'rib, Bolakay sevinib ketdi. U Yoffani erkalatib boshini silar, kuchuk ham irg'ishlab, vangillab qo'yardi. Hozir Bolakay shkafda o'tirgan Karlsonni ham tamoman unutgan, uning fikr-u zikri butunlay Yoffada edi.

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

Erkin MALIK

UCHAR OTLAR BO'LGAN EDI...

Qissa

Ularni sug'orish yog'li chalpak yeyishdan ham mazza. Karimboy chol tashvishdan qutulganiga shukur qilib, tut tagida salqinlab yotadi. Jonivor otlar kun tig'ida chanqaydi-da, minishimiz bilan ariq tomon yo'rtib qoladi. Butun qishloq bitta tegimon ariqdan suv ichadi. Ko'prik tagida kattagina yoyilma bor. Otlarni o'sha yerda sug'orib, o'sha yerda yalpizdan qashlag'ich qilib cho'miltiramiz. Bir yayrashadi, bir yayrashadi. Suvdan chiqqilari kelmaydi. Tuslari yaltirab, badanlaridan yalpiz hidlari taralib, yollari qizlarning sochidek patila-patila bo'b ketadi. Oldingi oyoqlarini suvga urib hopitishadi. Odamga o'xshab quloch otmoqchi bo'layotganlarini ko'rib, qiyqiramiz.

Qaytishda otlar boshlarini ozod ko'tarib, kuchga to'lib, bir-birlaridan o'zmoqchi bo'ladi. Jon deb boshini qo'yvorgimiz keladi-yu, Karimboy choldan qo'rqamiz. «Suv ichgandan keyin otni choptirmalaring, xarob qilasanlar», deydi chol. Shundog'am qorni g'o'ltillab ketishini bilamiz. Otlarni sug'orgach, Karimboy cholning non xaltasidan qotgan-qutgan burdalarni o'maramiz. Ariqdagi suvga bo'ktirib yeymiz, biram shirin tatiydi... Ammo o'g'rilik bir safar qimmatga tushay dedi. Karimboy cholning non xaltasi yonida yana bitta xalta turar, unga Karimboy chol tuzoq qo'yib, ushlab olgan bedanalarini solib qo'yardi. Erkagini aravakashlarga sotar, modasini sho'rva qilib ichardi. Bizni bedana to'rva bilan ishimiz bo'lmasdi.



O'sha kuni toshkanlik korandaning o'g'li, nomi esimdayam yo'q, bizlarga qo'shilib qolgan edi. Bedana to'rvadan bedana olaman deb birdan dodlab qoldi. Qarasak, qo'liga ilon o'ralib olibdi. To'rvaga tushib olgan ekan-da. To'rt tomonga ura qochib qoldik. Bola bizga ergashdi-yu, bir, ikki qadam bosib, guppa yiqildi. Narida yurgan Karimboy chol bir nimani sezib, bola yiqilgan joyga qarab yugurdi. Bolani ko'rdi-yu, shoshib atrofida aylanib qoldi. Biz ham to'rt tarafdin qo'rqa-pisa yig'ilib keldik, qop-qora ilon bolaning qo'liga o'ralib olgan, aftidan tishlagan joyini qo'yib yuboray demasdi. Bola o'zidan ketgan edi. Shu payt qaydandir shaldirama arava minib, domla Mamariza tog'aning o'g'li Karim aka kelib qoldi.

– Domla qayda? – baqirdi unga shosha-

pisha Karimboy chol.

– Uchastkada, paxsa urishyapti.

– Manovini olib bor...

Karim aka ilondan qo'rqar ekan, ko'rdi-yu, teskari qarab oldi. Bola ko'zini chirt yumib, hech nimani bilmay yotardi. Karimboy chol domlaning o'g'li bolani aravaga oladi, deb o'yladi. Karim aka qo'rqaman, dedi. Karimboy chol o'zi turtinib-surtinib bolani aravaga yotqizib berdi. Karim aka orqasiga qaramay otlarga qamchi bosdi. Biz ham changga botib aravaning orqasidan chopdik. Domla buva quloq qilinganlardan edi. Shunga bo'la Bo'zsuv bo'yida odamlarga qo'shilmay bo'lak yashar, urushdan keyin avf bo'lganlarmi, ko'p qatori ularga ham ko'cha bo'yidan uchastka berilgan edi. Hamma tomosha o'sha uchastkada bo'ldi. Ilonning tishi qarmoqqa o'xshagan bo'larkan. Bir botsa, qaytib chiqarib bo'lmas ekan. Buni Mamariza tog'a bilar ekanlar. Ahvolni ko'rish bilan darrov paxsachilardan ombir so'radilar. O'zlari minib yuradigan eshakning arqonini yechib kelishni buyurdilar. U kishining arqonida ko'p sir bor edi. Aytishlaricha, kunduz kunlari dalada uyqulari kelib qolsa, arqonni yerga halqa qilib qo'yar ekanlar-da, o'zlari halqaning ichiga kirib bemalol uxlayverarkanlar. Arqondan ilon, biror-bir gazanda, alvastilar oshib o'tolmas ekan. Biz shunday sehrli arqonning bir hang'i eshakning bo'ynida yurishiga hayron bo'lardik.

(Davomi bor.)

O'zbekona mulozamat – chin insoniy xislat. Unda kishi bilmas sir- sinoat, bebaho aql-farosat bor. Hayotda har kimning o'ri bor. U goh aqlida, goh tafakkurda, goh xushaxloqlikda, goh umrguzaronlikda mujassam.

Xalqimiz bilib aytadi: «Mehmonga borsang, yuqoriga chiqib o'tirib olma, pastda sendan ham ulug', aqlli odamlar o'tirganini unutma. Buyuk odam eng pastda o'tirsa ham ulug'ligicha qoladi».

Insonda Vatan tuyg'usi qachon kuchli bo'ladi?! Qachonki, u ona tuproqdan yiroq bo'lganida, «O'zbekiston» so'zini eshitganida, ko'zlaridan tirqirab yosh oqsa...

Jabbor RAZZOQOVning «Chin yurak so'zlari» kitobidan

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, V bob 19- modda

«A'LOCHILAR» SAHIFASIGA

7

Gulbahor Qobilova o'rta maktabni a'lo baholarga tamomlab, 2006-yil II Respublika tibbiyot kolleji talabasi bo'ldi.



I bosqichni a'lo baholarga bitirib, hozirda 232-guruh II bosqich talabasi. Gulbahor guruhda a'lochi o'quvchilardan biri, guruh sardori, jamoat ishlarida faol qatnashadi. Kursdoshlari, do'stlari bilan samimiy munosabatda bo'lib kelmoqda. Kollejimiz qoshida o'tkaziladigan tadbirlarda ham faol qatnashib turadi.

Guruh rahbari: Muhayyo NASIMJONOVA, direktor o'rinbosari: S.U.MAGDIYEVA

Men 18 yoshga to'lganimda, go'yo qo'limni uzatsam osmonga yetardi, shabbodalar, saharxez gullar menga dugona edi. Hali-hali esimda, bog'imizning chekkasida ekilgan o'smalarning tezroq o'sishini xohlardim. O'smalar gurkiraganda esa uning dimoqqa xush yoquvchi hidlarini taratib, piyolani to'nkarib ezardim. Qoshlarimga qop-qoraingan o'sma meni oynaga do'st qilib qo'ygan edi. 18 yoshimda xayollarim nihoyatda hur edi. Qalbidam endigina ildiz otgan ilk muhabbat iztiroblarini hali-hanuz entikib eslayman. Men o'sha yili maktabni tugatayotgan edim. Juda a'lochi, ayni paytda, juda xayolparast bo'lganman. Yuragimdagi cheksiz tug'yonlarga kitoblardan panoh izlardim. Juda ko'p o'qirdim. Qaysi bir kitobni o'qimay, undagi qahramonlarga aylangim kelar yoki ular bilan xayolan suhbatlashardim.

INTERFAOL USLUB VA BIZNING «ZAKOVAT»

Interfaol – «Noan'anaviy uslub»da darslarni olib borish va tashkillashtirish bizning maktabda havas qilarli darajada. Bu uslub o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, guruhlarda yakka tartibda ishlashga, darsga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishga munosib xizmat qilar ekan. Yuqorida sanab o'tganlarimizning bari juda muhim bo'lgan natijalardir. O'quvchilar o'z ustida ishlab, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlab olish uchun o'zlari dadil harakat qilmoqdalar. Xuddi shu uslubda olib borilgan darslar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini yana-da orttirmoqda. Bizning maktab o'quvchilari ham bu uslubdan foydalanib, darslarda faol qatnashmoqdalar. Har bir fan o'qituvchisi o'z ustida qiziqtiruvchi o'yinlarga ega. Shular ichida yuqori sinf o'quvchilari uchun eng qiziqarlisi, bu – «ZAKOVAT». Hayron bo'layotgandirsiz? Ha, aynan «ZAKOVAT»dagi singari biz ham guruhlarda ishlaymiz, o'z jamoamiz yutug'i uchun bor kuchimiz bilan harakat qilamiz. Qiziqarli savollarga javob topish uchun tinmay izlanamiz. Bularning barchasi bizni a'lochilar qatoriga yetaklamoqda. Biz o'quvchilar uchun «ZAKOVAT» nafaqat bilimlarni sinash, balki o'zaro do'stona munosabatlar o'rnatish kaliti hamdir. Buning uchun to'garak rahbarimiz Gulbahor Zafarovaga minnatdorchilik bildiramiz.

Muxlisa TO'LAGANOVA, poytaxtdagi 22-maktabning 11-sinf o'quvchisi



ADOLAT MEZONI

Yaqinda men O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining har bir moddasi bilan tanishib chiqdim. Konstitutsiyada belgilangan hamma moddalar inson manfaatlarini uchun adolat mezon sifatida xizmat qiladi.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 15 yoshga to'ladi. Yurtimizning barcha maktablarida bo'layotgani kabi bizning maktabimizda ham «Konstitutsiya – baxtimiz qomusi» mavzusida tadbir o'tkazildi. Tadbir orqali maktabdoshlarim yana bir bor Konstitutsiya haqida to'liq ma'lumot oldilar.

Mohichehra PO'LATOVA, Buxoro shahri, Kogon tumanidagi 4-maktabning 6-sinf o'quvchisi

«SHIRIN»NING SHIRIN QIZI

O'smirlar orasida turli «rep» qo'shiqlariga taqlid qiluvchilar ko'payib bormoqda. Garchi ular qo'shiq mazmuniga tushunmasalar-da, o'zlaricha xirgoyi qilib yurishadi.

Men ham qo'shiq aytishni yaxshi ko'raman. Faqat jonli, mumtoz qo'shiqlarimizni sevil tinglayman. Bu qiziqishim meni Andijondagi «Shirin» bolalar dastasiga yetakladi. Bugungi kunda ustozim bo'lmish otamdan qo'shiqchilik san'atini o'rganyapman. «Ustozlar», «O'zbek qiziman», «So'nggi qo'ng'iroq» kabi 10 dan ortiq qo'shiqlar kuyladim.

Ko'plab Respublikamiz va xalqaro ko'rik-tanlovlarda qatnashdim. Jumladan, Qozog'iston, Moskva va Belorussiyada bo'lib o'tgan tanlovlarda ishtirok etish nasib etdi.

O'tgan yili «Yangi avlod» Respublika bolalar ijodiyoti festivalida ham ishtirok etib, «Vatan» qo'shig'im bilan g'olib bo'ldim. Bu g'oliblik meni yana-da ruhlantirib yubordi.

Shirin MAMATOVA, Andijon shahridagi 1-maktab o'quvchisi

O'N SAKKIZ MING

OLAM SEHRI...

18 yoshimni goho sog'inib, goho uyalib eslayman. O'sha yoshda badiiy asarlar ta'siriga tushib qolgan men sodda juda ko'p kulguli ishlar qilganman. Hamisha bir qo'limda kitob, onam aytgan ishlarni boshqa qo'limda bajarardim. Bir kuni uyimizga dadamning ulfatlari mehmon bo'lib kelishgan edi. Onam ovqatga unnab ketdilar va menga choy damlab, olib kirishimni tayinladilar. Men o'shanda Stendalning «Qizil va qora» asarini qo'limdan qo'ymay o'qib yurardim. Qo'limdagi kitobdan ko'z uzmay choy damladim va dadamga eltib berdim. Hayal o'tmay, dadamning uydan yugurib chiqib, onamni koyiyotganliklarini eshitdim. Ma'lum bo'lishicha, men quruq choy o'rniga choynakka tuz solib, olib kirgan ekanman. O'sha kuni dadam bilan onamdan rosa tanbeh eshitdim.

Respublika olimpiadalarida adabiyot fanidan birinchi o'rinni ham shu yoshda egallaganman. Toshkent shahrini ham ilk bor shu yoshda ko'rganman. 18 yoshimda dunyoga faqat qalbidam bilan boqqan ekanman.

Har gal ona qishlog'imga borganimda,

daraxtlardan, yo'llardan, bog'imizning burchak-burchaklaridan 18 yoshimni izlayman. Ammo endi uni hech qayerdan topolmayman. Faqat uning sog'inchiga suyanaman, xolos.

Va, yana 18 yoshimni izlab topolmagach, qon bo'lib yig'lagan ko'nglimning tuyg'ularini she'rga solaman:

*O'tding dilkash shabboda misol,
Hislaringda aylandi boshim.
Bugun yelda uchgan xazonman,
Qayda golding, 18 yoshim?
Qachonlardir hatto tosh dilni –
Eritgandi o'tli qaroshim.
Muzlamoqda nechundir qonim,
Qayda golding, 18 yoshim?
Bugun seni juda sog'indim,
Ko'zlarimda aylandi yoshim.
Bor umrimni bir lahzang uchun
Berar edim, 18 yoshim!*

*Halima AHMEDOVA,
shoira*

Yaqinda Respublikamiz mushtariylari va adabiyot ixlosmandlari e'tiboriga yangi «XX asr she'riyati antologiyasi» kitobi taqdim etildi. Ma'lumki, «O'zbek she'riyati antologiyasi» nashrlari 1960-yillarda O'zbekiston badiiy adabiyoti nashriyoti tomonidan chop etilib, unda qadimgi davr mumtoz shoirlaridan tortib, keyingi davrgacha bo'lgan ijodkorlarning she'rlari tanlab kiritilgan edi. Qarangki, shundan deyarli yarim asrdan keyin XX asr o'zbek she'riyati antologiyasini chop etishga qo'l urildi.

YANGI ASR SHE'RIYATI

XX asr o'zbek she'riyati jahon she'riyati bilan bellasha oladigan darajaga yetdi. Bu davr o'zbek she'riyatiga «yangi she'riyat» sifati berildi. Yangi she'riyatdagi o'zgarishlar milliy uyg'onish davri, ya'ni jaded namoyondalari, xususan, Abdulhamid Cho'lpon nomi bilan bog'liq. Cho'lpon yangi o'zbek she'riyatining boshlovchisi va eng iste'dodli vakili edi. Shu boisdan ham «XX asr o'zbek she'riyati antologiyasi» kitobidagi ijodkorlar safi Cho'lpondan boshlangan.

Undan keyin, 30-yillarda she'riyatga kirib kelgan G'afur G'ulom, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Mirtemir va boshqa shoirlar to'g'risida ham ma'lumotlar va ularning saralab olingan she'rlaridan namunalar berilgan.

60-yillarda o'zbek she'riyatiga o'z hissasini qo'shgan va antologiyadan munosib o'rin olgan yangi guruh ijodkorlari Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon kabi shoirlarning ijodi umuminsoniy mohiyatga ega.

Antologiyada 70-80-yillar hamda istiqloq arafasidagi she'riyat betakror badiiy san'atlarga boy poetik jihatdan serqatlam she'riyat ekanligi qayd etilgan. Kitobda aks ettirilgan Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Yo'ldosh Eshbek va boshqa shoirlarning ijodi sermahsuldir.

B.Karimov va H.Abdiyev antologiyani tuzishdi va nashrga tayyorlashdi. Kitob 3 ming nusxada «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashrdan chiqarildi.

Ushbu antologiya she'riyat muxlislariga o'ziga xos sovg'a bo'libgina qolmay, undan oliy o'quv yurtlarida, kollej, litsey va o'rta maktablarda qo'shimcha o'quv qo'llanma sifatida ham foydalanish mumkin.

Ibrohim KARIMOV

Abdulhamid CHO'LPON

(1897–1938 y.y)

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon (Yunusov) 1897-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. She'riy asarlari «O'zbek yosh shoirlari», «Uyg'onish», «Buloqlar», «Tong sirlari» va «Soz» to'plamlarida, shuningdek, turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan. «Kecha va kunduz» (1936-y)



KO'NGIL


Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?
Haqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?
Tiriksen, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsen,
Kishan kiyma,
Bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!

romani hamda «Yorqinoy», «Xalil farang», «O'ldiruvchi» (1921-y), «Sevgi va saltanat», «Cho'pon sevgisi» (1922-y) kabi pyesalari ham bor. U 1938-yil 14-iyul kuni hibsga olinib, ko'p o'tmay, Toshkent shahri atrofida otib tashlangan. Vafotidan so'ng, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991-y) va «Mustaqillik» ordeni (1999-y) bilan taqdirlangan.

BUGUNNING



Mirasi
MIRKOMILOV 14
yoshda, xoreografiya oliy maktabi o'quvchisi, 2006-yilda o'tkazilgan «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalida xoreografiya yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lgan.



«YANGI AVLOD» LARI

– Qaysi xorijiy tillarni o'rganyapsiz?
– Turk, arab tillarini.

– «Yangi avlod» festivali sizda qanday taassurot qoldirdi?

– «Yangi avlod» festivalida ishtirok etish orqali eng yaxshi taassurotlarga ega bo'ldim, ko'p do'stlar ortirdim. Orzularimga erishishda mazkur tanlovning o'rni katta deb o'ylayman. G'olib bo'lganimdan so'ng, maktabdosh do'stlarim menga yana-da ishonch bilan qaray boshlashdi va qaysidir ma'noda men mazkur festival orqali ustozlarim bergan bilimlarni oqlashga muyassar bo'ldim. Kelajakda men ana shu yo'nalish bo'yicha o'z bilimimni yana-da mustahkamlashni va yurtimning san'ati rivojiga o'z hissamni qo'shishni istayman.

Bobur NAZARMUHAMMEDOV

Yoqtirgan fani: chizmachilik, rus tili, tarix, musiqa.

Kitobi: X. To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asari.

Filmi: «O'tkan kunlar».

Qo'shiqchisi: Ozodbek Nazarbekov.

Sport turi: futbol.

Taomi: osh, manti, sho'rva.

Rangi: ko'k.

San'atdan tashqari qiziqishlari: internet, bog'dorchilik ishlari.

Eng katta orzusi: «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan rassom» unvonini olish.

BU AJIB DUNYO




1939-yili Vengriyada siyohda yozadigan porshenli avtoruchkaga patent olingan. Uning pastasini avstraliyaliklar to'ldirganlar, u juda uzoq vaqt qotmay saqlangan... «Sharik»ning o'zi aytarli ko'hna bo'lmasa-da, uning ajdodlari birmuncha qadimiydir. Arxeologlar Tutanxamon (Misrdan miloddan avval 1400–1392-yillarda hukm surgan fir'avn) maqbarasidan mis ruchka topishgan. Uning ichida ingichka qirrador qo'rg'oshin naycha bo'lib, undan bo'yoq moddasi «peroga» kelib tushgan. Oradan o'nlab asrlar o'tgandan so'ng, g'oz patidan yasaladigan metall naychalarga siyoh to'ldiriladigan va yoziladigan bo'lgan.

Yaponiyada imperator buyrug'i bilan maktab o'quv dasturiga qiziq bir o'zgartirish kiritildi. Ya'ni, har bir sinfdan suzish bo'yicha mashg'ulot o'tkazilishi majburiy tarzda belgilab qo'yildi. Aniqlik aytganda, har bir o'quvchi geografiya, matematika, tarix kabi fanlar qatori suzish bo'yicha ham majburiy ta'lim olishi belgilandi.

Donetsklik Nastya Fendorenko 1,5 yoshidayoq suratga ola boshlagan edi. Ota kasbiga qiziqishi uning yoshligidan boshlandi. U 3 yoshida shahar ko'chalarida yurib, chiroyli manzaralar, tabiat ko'rinishlari, jonivorlar, bog'lar va hamshaharlarini suratga tushirib, xalqaro ko'rgazmada medal olishga ulgurdi. Nastya (1987-yilning 1-aprelida tug'ilgan)ning dastlabki shaxsiy fotoko'rgazmasi u 3,5 yoshga yetar-yetmas paytida o'tkazilgan.

SHOKOLADGA QADAR

Shokolad «chokoatl» – «achchiq suv» deb atalgan ichimlik nomidan kelib chiqqan. U achchiq bo'lgan. Meksikaning qadimiy aholisi – atsteklar kakao donini maydalab, vanil (xushbo'y mevali tropik o'simlik) hamda achchiq garimtori aralastirishgan. Og'izda erib ketadigan shokolad plitkasi «achchiq suvga» o'xshamaydi, albatta. Shokoladning mazasi qovurilgan kakao doni, jo'xori, asal, agava (yirik bargli tropik o'simlik)ning shirin sharbati va vanildan tayyorlangan ichimlikni eslatadi. Ma'lum bo'lishicha, undan shirinlikni atsteklar shohlar uchun maxsus tayyorlab, tilla likopchalarda taqdim etishgan.



KITOB JAVONINGIZGA

Ilhom Zoyirning «Holva yemagan bola» kitobi G'afur G'ulom nomidagi NMIUda chop etildi. Ushbu qissada Vafu ismli o'spirinning goh mahzun, goh shumliklarga qarishib kechgan hayoti tasvirlangan. Balki siz ham shunday yoki shunga o'xshash bolalikni boshingizdan kechirgandirsiz?! Agar shunday bo'lsa, qissani xuddi o'zingiz to'g'ringizda yozilgan asar sifatida o'qiydiz. Bordini, bolaligingiz boshqacha kechgan bo'lsa, o'ylaymizki, asar qahramoni sizning ukangiz yoki yaqin jo'rangiz bo'lib qoladi.



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.

Adadi - 18363
Buyurtma N: J 4322

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA